UO‘K 81

O‘ZBEK TILI LEKSIKASINI O‘QITISHDA SEMANTIK YONDASHUVNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Nazarova Dilnoza G‘ulomovna,
Buxoro viloyati Peshku tumani
28-maktab o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tili leksikasini o‘qitish jarayonida semantik tahlildan foydalanishning lingvodidaktik imkoniyatlari tadqiq etiladi. Leksik birliklarning lug‘aviy va kontekstual ma’nolarini aniqlash, ko‘p ma’nolilik, sinonimiya, antonimiya, omonimiya hamda o‘z va ko‘chma ma’no munosabatlarini tahlil qilishning o‘quvchilarda lug‘aviy kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda semantik, kontekstual, qiyosiy va lingvometodik tahlil usullaridan foydalanilgan. Semantik tahlilning o‘quvchilarning so‘z ma’nosini anglash, leksik birliklar o‘rtasidagi ma’no munosabatlarini farqlash, nutqiy vaziyatga mos so‘z tanlash hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, leksik materiallarni kontekst asosida tahlil qilish orqali ona tili ta’limining lingvistik va kommunikativ samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tili leksikasini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va semantik yondashuv asosida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, leksika, leksik ma’no, semantik tahlil, lingvodidaktika, leksik birlik, lug‘aviy kompetensiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya.*

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье исследуются лингводидактические возможности использования семантического анализа в процессе обучения лексике узбекского языка. Раскрывается значение определения лексического и контекстуального значений лексических единиц, а также анализа полисемии, синонимии, антонимии, омонимии и отношений между прямым и переносным значениями в формировании у учащихся лексической компетенции. В исследовании использованы методы семантического, контекстуального, сравнительного и лингвометодического анализа. Обосновываются возможности семантического анализа в развитии у учащихся навыков понимания значения слов, разграничения смысловых отношений между лексическими единицами, выбора слов в соответствии с речевой ситуацией и самостоятельного мышления. Кроме того, показаны пути повышения лингвистической и коммуникативной эффективности обучения родному языку посредством анализа лексического материала на основе контекста. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для совершенствования методики обучения лексике узбекского языка и организации практических занятий на основе семантического подхода.*

Ключевые слова: *узбекский язык, лексика, лексическое значение, семантический анализ, лингводидактика, лексическая единица, лексическая компетенция, полисемия, синонимия, антонимия, омонимия.*

LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS OF THE SEMANTIC APPROACH TO TEACHING UZBEK LANGUAGE LEXICON

Abstract. *This article examines the linguodidactic potential of using semantic analysis in the process of teaching the lexicon of the Uzbek language. It highlights the importance of identifying the lexical and contextual meanings of lexical units and analyzing polysemy, synonymy, antonymy, homonymy, as well as the relationships between literal and figurative meanings in developing students’ lexical competence. The study employs semantic, contextual, comparative, and linguomethodological analysis methods. The potential of semantic analysis in developing students’ skills in understanding word meanings, distinguishing semantic relationships between lexical units, selecting appropriate words according to communicative situations, and developing independent thinking is substantiated. Furthermore, the article identifies ways to improve the linguistic and communicative effectiveness of native language education through context-based analysis of lexical materials. The findings of the study are of significant theoretical and practical importance for*

improving the methodology of teaching Uzbek language lexicon and organizing practical lessons based on a semantic approach.

Keywords: *Uzbek language, lexicon, lexical meaning, semantic analysis, linguodidactics, lexical unit, lexical competence, polysemy, synonymy, antonymy, homonymy.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda milliy tilning ijtimoiy hayotdagi mavqeyini mustahkamlash, uning boy lug‘aviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda yosh avlodning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish ona tili ta’limining muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, o‘quvchining so‘z boyligini kengaytirish, so‘zlarning lug‘aviy va kontekstual ma’nolarini farqlash, ma’no munosabatlarini anglash va nutqiy vaziyatga mos leksik birliklardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ona tili ta’limining dolzarb masalalaridan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tili leksikasini o‘qitishda semantik tahlildan foydalanish nafaqat nazariy lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarning amaliy nutqiy faoliyatini takomillashtirish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan yanada izchil davom ettirildi. Ushbu Farmon bilan 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlanib, o‘zbek tilining ijtimoiy hayotdagi va xalqaro miqyosdagi nufuzi hamda mavqeini oshirish, tilning zamonaviy ilmiy va texnologik imkoniyatlarini rivojlantirish, ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni muntazam ravishda muomalaga kiritish kabi vazifalar belgilandi.

Mazkur vazifalarning amaliy ro‘yobga chiqishi, avvalo, ta’lim tizimida o‘zbek tilining lug‘aviy boyligi va semantik imkoniyatlarini chuqur o‘rgatishni taqozo etadi. Chunki tilning ijtimoiy nufuzi faqat uning rasmiy maqomi bilan emas, balki jamiyat a’zolarining undan to‘g‘ri, mazmunli va maqsadga muvofiq foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Bunda leksik birliklarning ma’nosini anglash, ular o‘rtasidagi semantik munosabatlarni farqlash va mazmuniy jihatdan eng maqbul birlikni tanlay olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi ham aynan shundan iboratki, zamonaviy ona tili ta’limida o‘quvchiga tayyor lingvistik ma’lumotlarni berishdan ko‘ra, uni til birliklarining mazmuniy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilishga yo‘naltirish, so‘zning ma’nosini kontekst orqali anglash va turli semantik munosabatlarni farqlashga o‘rgatish muhimdir. Bu esa o‘zbek tili leksikasini o‘qitishda semantik tahlilning metodik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda o‘zbek tilining leksik-semantik tizimini tadqiq etishga bo‘lgan ilmiy qiziqish yanada kuchayib, leksemaning semantik tabiati, leksik ma’noning tarkibi, semantik munosabatlar hamda til birliklarining mazmuniy xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlar o‘zbek tili leksikasini ta’lim jarayonida semantik tahlil asosida o‘rgatish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Jumladan, M. U. Kushkarbekova tadqiqotida leksikologiyaning tilshunoslikdagi o‘rni, uning semasiologiya, semantika, frazeologiya, leksikografiya va etimologiya kabi sohalar bilan aloqasi hamda so‘zning til birligi sifatidagi mohiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda leksikologiyaning ichki tarkibi va so‘z ma’nosini o‘rganish masalalariga e’tibor qaratilgani semantik tahlilning nazariy asoslarini belgilashda muhimdir. Muallifning mazkur qarashlari bizning tadqiqotimiz uchun leksik birlikni faqat shakliy jihatdan emas, balki uning semantik xususiyatlari asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Yana bir olima S. S. Bobojonovaning o‘zbek tilidagi “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “axloq” umumiy semali atov birliklari tizimiga bag‘ishlangan PhD tadqiqoti zamonaviy o‘zbek tilshunosligida leksik birliklarni semantik kategoriya va umumiy sema asosida tadqiq etishning muhim namunalaridan biridir. Tadqiqotning ahamiyatli jihati shundaki, unda leksemalar alohida birlik sifatida emas, balki umumiy semantik belgilar asosida tizimlashtiriladi. Bu yondashuv maktab ta’limida sinonimik, tematik va leksik-semantik guruhlarni o‘rgatishda samarali metodik asos bo‘la oladi.

K. Rixsiyeva tadqiqotida ham zamonaviy o‘zbek leksikologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur tadqiqot leksemalarning shakllanishi va tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishga qaratilgan bo‘lsa-da, undagi leksik birliklarning genezisi va semantik xususiyatlarini kuzatish usuli o‘quvchilarga so‘z ma’nosining shakllanishi va taraqqiyotini tushuntirishda metodik imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, D. B. Abdullayeva o‘z tadqiqotida o‘zbek tilidagi so‘z ma’nosining tarkibi va rivojlanish qonuniyatlari, ma’noning kengayishi, torayishi va ko‘chishi, shuningdek, sinonimiya, antonimiya, omonimiya va polisemiya kabi semantik munosabatlar tahlil qilingan. Tadqiqotning bizning mavzuga bevosita aloqador jihati shundaki, unda leksik birliklarning mazmuniy munosabatlarini qiyosiy va semantik

tahlil asosida o‘rganish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Bu esa mazkur lingvistik yondashuvlarni maktab ona tili darslariga tatbiq etish, xususan, o‘quvchilarni so‘z ma’nosini kontekst va semantik munosabatlar asosida aniqlashga o‘rgatish uchun nazariy zamin yaratadi.

Yuqoridagi zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda o‘zbek tilining leksik sathi semantik kategoriya, sema, leksema, ma’no taraqqiyoti va leksik-semantik munosabatlar nuqtayi nazaridan faol tadqiq qilinmoqda. Biroq mazkur tadqiqotlarda aniqlangan lingvistik qonuniyatlarni umumiy o‘rta ta’limda o‘zbek tili leksikasini o‘qitish metodikasi bilan bog‘lash, semantik tahlilni o‘quvchilarning lug‘aviy kompetensiyasini shakllantirish vositasi sifatida tizimli qo‘llash masalasi yetarlicha alohida tadqiqot obyekti sifatida yoritilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy yo‘nalishi aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o‘zbek tili leksikasini o‘qitishda semantik tahlilning lingvodidaktik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida semantik, kontekstual, qiyosiy va lingvodidaktik tahlil metodlaridan foydalanildi. Semantik metod orqali leksik birliklarning lug‘aviy va kontekstual ma’nolari, sinonimik, antonimik, omonimik hamda ko‘p ma’nolilik munosabatlari o‘rganildi. Kontekstual tahlil asosida so‘z ma’nosining nutqiy vaziyatda voqelanish xususiyatlari aniqlandi. Qiyosiy metod yordamida semantik jihatdan yaqin va zid birliklarning farqli belgilari ochib berildi. Lingvodidaktik tahlil orqali mazkur usullarning o‘quvchilarda lug‘aviy kompetensiya, mustaqil fikrlash va nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari baholandi. Tadqiqotda o‘zbek tili darsliklari, ilmiy adabiyotlar va leksikologik mazmundagi o‘quv topshiriqlari tahlil qilindi.

Natija. Tadqiqot natijalari o‘zbek tili leksikasini o‘qitishda semantik tahlildan foydalanish o‘quvchilarning leksik birliklar mohiyatini chuqur anglashiga, so‘z boyligini faol o‘zlashtirishiga va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishiga xizmat qilishini ko‘rsatdi. An’anaviy yondashuvda o‘quvchidan so‘zning ma’nosini izohlash, sinonim yoki antonimini topish talab qilinsa, semantik tahlil asosidagi yondashuvda o‘quvchi so‘zning ma’nosi, ma’no tarkibi, kontekstdagi vazifasi va boshqa birliklar bilan semantik munosabatini mustaqil aniqlashga yo‘naltiriladi. Shu jihatdan semantik tahlil leksikologik bilimlarni amaliy nutq faoliyati bilan bog‘lash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida leksik birliklarni o‘rgatishda kontekstual-semantik yondashuv samarali ekani aniqlandi. So‘z ma’nosini alohida holda emas, balki gap va matn tarkibida o‘rganish o‘quvchiga bir leksemaning turli nutqiy vaziyatlarda turlicha mazmun ifodalashini anglash imkonini beradi. Masalan, *“oltin uzuk”*, *“oltin kuz”*, *“oltin qo‘l”* birikmalaridagi oltin leksemasi turli semantik vazifalarda qo‘llangan. Birinchi birikmada u predmetning tarkibiy xususiyatini, ikkinchisida mavsumning obrazli belgisini, uchinchisida esa shaxsning mahoratini ifodalovchi ko‘chma ma’noni anglatadi. Bunday tahlil o‘quvchini tayyor izohni yodlashdan ko‘ra, ma’noni kontekst asosida mustaqil aniqlashga o‘rgatadi.

Semantik tahlilning yana bir muhim natijasi ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatish jarayonida kuzatildi. O‘quvchilarga bir leksemaning turli ma’nolarini alohida-alohida yodlatishdan ko‘ra, ularning o‘zaro semantik bog‘liqligini ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Masalan, *bosh* leksemasining *“odamning boshi”*, *“ishning boshi”*, *“tog‘ning boshi”*, *“guruh boshlig‘i”* kabi qo‘llanishlari tahlil qilinganda, o‘quvchi mazkur ma’nolarning shakllanish mexanizmini anglaydi. Natijada polisemiya hodisasi abstrakt nazariy tushuncha emas, balki real nutqiy material asosida o‘zlashtiriladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sinonimik munosabatlarni semantik tahlil asosida o‘rganish ham alohida metodik imkoniyatlarga ega. Sinonimlarni faqat “ma’nodosh so‘zlar” sifatida belgilash o‘quvchining ularni amaliy nutqda to‘g‘ri qo‘llashi uchun yetarli emas. Shu sababli sinonimik qatordagi birliklarning ma’no darajasi, uslubiy bo‘yoqdorligi va qo‘llanish doirasini qiyoslash zarur. Masalan, *chiroyli – go‘zal – suluv* birliklarini tahlil qilish orqali ularning umumiy semantik belgisi bilan birga, ifoda kuchi va uslubiy xususiyatlaridagi farqlarni aniqlash mumkin. Bunday mashqlar o‘quvchining leksik tanlov kompetensiyasini shakllantiradi.

Antonimik birliklarni o‘rganishda ham semantik tahlil samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. *Yaxshi – yomon, katta – kichik, issiq – sovuq* kabi birliklar o‘rtasidagi zidlik munosabatini aniqlash bilan birga, ularning kontekstda qanday mazmuniy qarama-qarshilik hosil qilishi tahlil qilinadi. Bu usul o‘quvchilarda semantik munosabatlarni tizimli idrok etish va til birliklarini guruhlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Tadqiqotda omonimlarni kontekst asosida farqlash ham muhim natijalardan biri sifatida belgilandi. Shaklan bir xil, ammo ma’nosi boshqa bo‘lgan birliklarni o‘rganishda kontekst asosiy aniqlovchi omil vazifasini bajaradi. Masalan, *“Yoz fasli boshlandi”* va *“Xatni daftarimga yoz”* gaplaridagi *yoz* shaklining turli grammatik va leksik xususiyatlarini qiyoslash orqali o‘quvchi shakliy o‘xshashlik bilan ma’noviy farqni

ajrata oladi. Shu tariqa semantik tahlil omonimik birliklarni mexanik ravishda yodlashdan ko‘ra, ularni nutqiy vaziyat orqali anglash imkonini beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, semantik tahlil asosida tashkil etilgan mashqlar o‘quvchining mustaqil fikrlash faoliyatini ham faollashtiradi. Xususan, “So‘zning ma’nosini kontekstdan aniqlang”, “Bir leksemaning turli ma’nolarini qiyoslang”, “Sinonimlar orasidagi ma’no nozikligini izohlang”, “Berilgan so‘zning o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanishiga misol keltiring” kabi topshiriqlar o‘quvchini tayyor javobni takrorlash emas, balki lingvistik dalil asosida xulosa chiqarishga undaydi.

Shuningdek, semantik tahlilning matn bilan ishlashdagi imkoniyatlari ham aniqlandi. Badiiy, publitsistik va ilmiy-ommabop matnlardan olingan leksik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish orqali o‘quvchi so‘zning faqat lug‘aviy ma’nosini emas, balki uning matndagi uslubiy va kommunikativ vazifasini ham anglaydi. Ayniqsa, badiiy matnlarda ko‘chma ma’no, metaforik qo‘llanish, obrazlilik va kontekstual ma’no kabi hodisalarni tahlil qilish o‘quvchilarning til sezgirligini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida semantik tahlilning lingvodidaktik imkoniyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda umumlashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Semantik tahlilning imkoniyati

Leksik ma’no	So‘zning lug‘aviy va kontekstual ma’nosini aniqlash
Polisemiya	Bir leksemaning o‘zaro bog‘liq ma’nolarini farqlash
Sinonimiya	Ma’no nozikligi va uslubiy farqlarni aniqlash
Antonimiya	Semantik zidlik munosabatlarini ochish
Omonimiya	Shakliy bir xil birliklarni kontekst orqali farqlash
O‘z va ko‘chma ma’no	Ma’no ko‘chishi va obrazlilikni anglash
Matn tahlili	Leksik birlikning kontekstual va uslubiy vazifasini aniqlash
Nutqiy kompetensiya	Vaziyatga mos va aniq leksik birlik tanlash

Umuman, tadqiqot natijalari semantik tahlilni o‘zbek tili leksikasini o‘qitishning faqat yordamchi usuli emas, balki o‘quvchilarning lingvistik tafakkuri va lug‘aviy kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy metodik vositalardan biri sifatida qarash mumkinligini ko‘rsatdi. Semantik tahlil orqali o‘quvchi so‘zning ma’nosini bilish bilan cheklanmay, uning boshqa birliklar bilan munosabatini aniqlash, kontekstual mazmunini anglash, nutqiy vaziyatga mos qo‘llash va o‘z fikrini aniq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa leksikologiya ta’limining nazariy bilim berishdan amaliy-kommunikativ yo‘nalishga o‘tishini ta’minlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar o‘zbek tili leksikasini o‘qitishda semantik tahlildan foydalanishning lingvodidaktik jihatdan samarali ekanini ko‘rsatadi. Semantik tahlil o‘quvchining leksik birlik haqidagi bilimini faqat uning lug‘aviy izohi bilan cheklab qo‘ymasdan, so‘zning kontekstual mazmuni, semantik tarkibi, boshqa birliklar bilan munosabati va nutqiy vaziyatdagi funksiyasini anglashga yo‘naltiradi. Shu jihatdan mazkur yondashuv zamonaviy ona tili ta’limining o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki til hodisasini kuzatuvchi va tahlil qiluvchi subyekt sifatida shakllantirishga qaratilgan talablari bilan hamohangdir.

Avvalo, semantik tahlilning samaradorligi “so‘z – ma’no – kontekst” munosabatini yaxlit holda o‘rganish imkoniyati bilan belgilanadi. So‘zning lug‘aviy ma’nosi uning nutqdagi barcha mazmuniy imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilmaydi. Muayyan kontekstda leksema o‘zining asosiy ma’nosini saqlashi, ma’nosini kengaytirishi, toraytirishi yoki ko‘chma ma’noda qo‘llanishi mumkin. Shu sababli o‘quvchiga so‘z ma’nosini tayyor izoh shaklida berishdan ko‘ra, uni turli kontekstlarda kuzatish va qiyoslashga yo‘naltirish samaraliroqdir. Masalan, *“oltin uzuk”*, *“oltin kuz”* va *“oltin qo‘l”* birikmalarini qiyoslash orqali o‘quvchi bir leksemaning predmet, obrazli va ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishini anglaydi. Demak, kontekstual tahlil leksik ma’noni abstrakt tushuncha sifatida emas, balki real nutqiy hodisa sifatida o‘zlashtirishga yordam beradi.

Mazkur yondashuv ko‘p ma’nolilik hodisasini o‘qitishda ham alohida ahamiyatga ega. Polisemiya o‘quvchilar uchun nisbatan murakkab leksik hodisalardan biri bo‘lib, uni faqat ta’rif va misollar orqali tushuntirish ko‘pincha yetarli natija bermaydi. Bir leksemaning turli ma’nolari o‘rtasidagi semantik bog‘liqlikni ko‘rsatish esa o‘quvchida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Masalan, *bosh* leksemasining *“odamning boshi”*, *“ishning boshi”*, *“tog‘ning boshi”*, *“guruh boshlig‘i”* kabi qo‘llanishlarini qiyoslash orqali ma’no

taraqqiyoti va ma’no ko‘chishi mexanizmlarini ko‘rsatish mumkin. Bunda o‘quvchi faqat ma’nolarni sanab bermaydi, balki ular o‘rtasidagi semantik aloqani izohlashga harakat qiladi.

Tadqiqot natijalarini zamonaviy o‘zbek tilshunosligidagi qarashlar bilan qiyoslash ham muhim. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda o‘zbek tili leksikasi sema, semantik kategoriya, leksema, leksik-semantik munosabatlar va ma’no taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tadqiq qilinmoqda. Jumladan, M.U.Kushkarbekovaning leksikologiya va so‘z mohiyatiga oid qarashlari, S.S. Bobojonovaning leksik-semantik kategoriyalarni semalar asosida o‘rganishga doir tadqiqoti hamda D.B. Abdullayevaning semasiologik munosabatlarga bag‘ishlangan ishlari leksik birliklarning mazmuniy tabiatini tizimli o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur ilmiy qarashlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish esa semantik tahlilni lingvodidaktik vosita sifatida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Semantik tahlilning sinonimlarni o‘rgatishdagi imkoniyatlari ham alohida e’tiborga loyiq. Maktab amaliyotida sinonimlar ko‘pincha “bir xil yoki yaqin ma’noli so‘zlar” sifatida izohlanadi. Biroq bunday yondashuv sinonimik birliklarning ma’no darajasi, uslubiy bo‘yoqdorligi va nutqiy qo‘llanishidagi farqlarni to‘liq ochib bermaydi. Masalan, *chiroyli, go‘zal, suluv* birliklari umumiy “ijobiy tashqi ko‘rinish” semasiga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi va ekspressivligi bir xil emas. Shuning uchun sinonimik qatorlarni semantik va uslubiy jihatdan qiyoslash o‘quvchining so‘z tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa leksik bilimni kommunikativ ko‘nikmaga aylantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Antonimik munosabatlarni o‘rganishda ham semantik yondashuv o‘quvchining til tizimini anglashiga xizmat qiladi. *Yaxshi – yomon, katta – kichik, baland – past* kabi birliklarni qarama-qarshi qo‘yishning o‘zi yetarli emas. Ularning qaysi semantik belgi asosida zidlik hosil qilayotganini aniqlash o‘quvchining tahliliy tafakkurini rivojlantiradi. Bundan tashqari, antonimlarning badiiy va publitsistik matnlardagi uslubiy vazifalarini tahlil qilish orqali qarama-qarshilikning nafaqat leksik, balki matniy va kommunikativ xususiyatlarini ham ochish mumkin.

Omonimiyani o‘rgatishda esa kontekstual tahlilning ahamiyati yanada ortadi. Shakliy jihatdan bir xil bo‘lgan birliklarning turli ma’nolarini faqat lug‘aviy ta’rif orqali tushuntirish o‘quvchida chalkashlik tug‘dirishi mumkin. Masalan, *“Yoz fasli boshlandi”* va *“Daftarga yoz”* gaplaridagi *yoz* shaklining ma’no va grammatik xususiyatlarini qiyoslash orqali o‘quvchi bir xil shaklning turli mazmun va vazifada qo‘llanishini anglaydi. Bunday mashqlar semantik farqlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, semantik tahlilni matn asosida tashkil etish uning lingvodidaktik samaradorligini yanada oshiradi. Alohida so‘z yoki gapdan ko‘ra, yaxlit matn o‘quvchiga leksik birlikning real kommunikativ vazifasini ko‘rish imkonini beradi. Badiiy matnlarda ko‘chma ma’no va obrazlilik, publitsistik matnlarda baholovchi birliklar, ilmiy matnlarda terminlarning aniq ma’noda qo‘llanishi semantik tahlil uchun turli materiallarni taqdim etadi. Natijada o‘quvchi so‘z ma’nosining uslub va kommunikativ maqsad bilan bog‘liqligini ham anglay boshlaydi.

Shu o‘rinda semantik tahlilni kompetensiyaviy yondashuv bilan bog‘lash zarur. Leksikologiyani o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchining “polisemiya”, “sinonimiya”, “antonimiya”, “omonimiya” kabi terminlarni bilishi bilangina belgilanmasligi kerak. Muhimi, o‘quvchi ushbu bilimlarni amalda qo‘llay olishi, so‘zning ma’nosini mustaqil aniqlashi, ma’no munosabatlarini farqlashi va nutqiy vaziyatga mos leksik birlikni tanlay olishidir. Shu nuqtayi nazardan semantik tahlil nazariy bilimni amaliy nutqiy kompetensiyaga aylantiruvchi mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Biroq semantik tahlilni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda ayrim muammolar ham mavjud. Birinchidan, barcha leksik birliklarni bir xil darajada chuqur semantik tahlil qilish dars vaqtining cheklanganligi sababli amaliy jihatdan qiyin. Ikkinchidan, o‘quvchilarning lingvistik tayyorgarligi turlicha bo‘lgani sababli murakkab semantik topshiriqlar ayrim o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Uchinchidan, semantik tahlil haddan tashqari nazariylashtirilsa, uning kommunikativ mohiyati susayishi ehtimoli mavjud. Shu sababli topshiriqlarni oddiy kuzatishdan murakkab tahlilga tomon bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofiq. Masalan, semantik topshiriqlarni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin: 1) so‘z ma’nosini aniqlash; 2) ma’noni kontekst asosida izohlash; 3) boshqa birlik bilan qiyoslash; 4) semantik munosabatni aniqlash; 5) mustaqil gap yoki matn yaratishda qo‘llash. Bunday izchillik o‘quvchining oddiy reproduktiv faoliyatidan tahliliy va ijodiy faoliyatga o‘tishini ta’minlaydi.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim sharoitida semantik tahlilni raqamli va interaktiv vositalar bilan uyg‘unlashtirish ham istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilarga bir leksemaning turli kontekstlardagi qo‘llanishlarini taqqoslash, sinonimik qatorlarni semantik belgilar asosida guruhlash yoki matndagi ko‘chma ma’noli birliklarni aniqlash kabi interaktiv topshiriqlar berish mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchini til hodisasini mustaqil izlash va tahlil qilishga undaydi.

Umuman, muhokama qilingan natijalar semantik tahlilning o‘zbek tili leksikasini o‘qitishdagi imkoniyatlari uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi: birinchidan, u leksik hodisalarning lingvistik mohiyatini chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydi; ikkinchidan, o‘quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi; uchinchidan, olingan bilimlarni real nutqiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Demak, semantik tahlilni leksikologiya ta’limining markaziy metodik vositalaridan biri sifatida qo‘llash o‘quvchining nafaqat til haqidagi bilimlarini, balki til bilan ishlash, fikrni aniq ifodalash va kommunikativ vaziyatga mos so‘z tanlash kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu asosda mazkur tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytish mumkinki, o‘zbek tili leksikasini o‘qitishda semantik tahlil lingvistik nazariya va amaliy nutq faoliyati o‘rtasidagi bog‘lovchi mexanizm sifatida qaralishi lozim. Uning kontekstual, qiyosiy va kommunikativ yo‘nalishlarda tashkil etilishi leksikologiya darslarining mazmunini boyitib, o‘quvchilarning lug‘aviy kompetensiyasini izchil rivojlantirish uchun samarali metodik imkoniyat yaratadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘zbek tili leksikasini o‘qitishda semantik tahlildan foydalanish o‘quvchilarning lug‘aviy bilimlarini chuqurlashtirish, semantik tafakkurini rivojlantirish va nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali lingvodidaktik vosita ekanini ko‘rsatdi. Semantik tahlil orqali o‘quvchi so‘zning faqat lug‘aviy ma’nosini o‘zlashtirish bilan cheklanmay, uning kontekstdagi mazmuni, semantik tarkibi va boshqa leksik birliklar bilan munosabatini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tadqiqot davomida polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, o‘z va ko‘chma ma’no kabi leksik-semantik hodisalarni kontekst va qiyoslash asosida o‘rgatish o‘quvchilarning mustaqil kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi. Ayniqsa, “so‘z–ma’no–kontekst” munosabatiga asoslangan mashqlar o‘quvchilarning so‘z ma’nosini nutqiy vaziyatdan kelib chiqib anglashiga yordam beradi.

Semantik tahlilning lingvodidaktik samaradorligi uni kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuv bilan uyg‘unlashtirish orqali yanada oshadi. Bunda leksikologik bilimning natijasi termin va ta’riflarni yod bilish bilan emas, balki o‘quvchining so‘zlarni mazmun va vaziyatga mos tanlashi, ulardan to‘g‘ri va ta’sirchan foydalanishi bilan belgilanadi.

Shuningdek, leksik birliklarni matn asosida semantik tahlil qilish o‘quvchilarning so‘z ma’nosining uslubiy va kommunikativ xususiyatlarini anglashiga imkon beradi. Shu sababli ona tili darslarida alohida so‘z va gaplar bilan bir qatorda, badiiy, publitsistik hamda ilmiy-ommabop matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman, semantik tahlilni o‘zbek tili leksikasini o‘qitish jarayoniga tizimli joriy etish nazariy lingvistik bilimlarni amaliy nutq faoliyati bilan bog‘lash, o‘quvchilarning lug‘aviy kompetensiyasini rivojlantirish va ona tili ta’limining kommunikativ samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bois kelgusida semantik tahlilga asoslangan topshiriqlar tizimini takomillashtirish, ularni o‘quvchilarning yosh va lingvistik tayyorgarlik darajasiga moslashtirish hamda raqamli ta’lim vositalari bilan integratsiyalash istiqbolli metodik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni, 2020-yil 20-oktabr.

2. Kushkarbekova M. U. Leksikologiya tushunchasi va unda so‘zning mohiyati // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – Vol. 2, Issue 3. – B. 175–180.

3. Bobojonova Sh. Sh. O‘zbek tili “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “axloq” umumiy semali atov birliklari tizimi. PhD dissertatsiyasi, 10.00.01 – O‘zbek tili. – Qarshi davlat universiteti.

4. Rixsiyeva K. Qap asosli leksemalar genezisi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2022.

5. Abdullayeva D. B. O‘zbek tili semasiologiyasi: ma’no tizimi va uning rivojlanish qonuniyatlari // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. – 2025. – 63-son, 3-qism. – B. 271–275.

6. Nazarova D. O‘zbek tili leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti// Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2021-yil, 2-son.–152-154-b. (13.00.00; № 23)

7. Nazarova D.G. Unconventional ways of teaching students’ morphological features of nouns// European journal of research and reflection in educational sciences, UK, ISSN 2056-5852 VOL.8.NO.10, 2020. 92-98 –p. (Impact Factor: SJIF = 6.630)